



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI "O'ZARXIV" AGENTLIGI DIREKTORINING  
BUYRUG'I**

---

**"O'zarxiv" agentligi tomonidan xarid qilish tartib-taomillarini  
tashkil etish va o'tkazishda Xarid komissiyasi faoliyati  
samaradorligini oshirish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida" Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi "Davlat xaridlari amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 276-sun qaroriga muvofiq, "O'zarxiv" agentligi tomonidan xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazishda Xarid komissiyasi faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida, **buyuraman**:

1. "O'zarxiv" agentligi huzurida faoliyat ko'rsatuvchi **Xarid komissiyasi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.**

2. "O'zarxiv" agentligi tomonidan xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish, Xarid komissiyasi faoliyati O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida" Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-sun qarori bilan tasdiqlangan "Davlat xaridlari amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom" talablariga qat'iy rioya qilinishi ta'minlansin.

3. **Xarid komissiyasiga** quyidagi vazifalar yuklansin:

xarid qilish hujjatlarini Qonunning 59- va 67-moddasida nazarda tutilgan talablarga muvofiqligini ko'rib chiqish va kelishish;

takliflarni baholash mezonlarini va usullarini belgilash;

takliflarni qabul qilish muddatlari va ochish tartib-taomillarini belgilash;

ishtirokchilarining takliflarini ochishni amalga oshirish;

xarid qilish tartib-taomillarini Qonunga muvofiq amalga oshirish;

Qonunda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar va vazifalarni amalga oshirish.

4. Xarid komissiyasi kotibi (F.Suyunov):

eng yaxshi takliflarni tanlash va tender o'tkazish bo'yicha ishtirokchilarning takliflarini rasmiylashtirish xarid qilish hujjatlariga mos kelishini tekshirishni amalga oshirgan holda natijalarini ko'rib chiqish uchun Xarid komissiyasiga taqdim qilinishini;

xarid qilish hujjatlarida belgilangan mezonlar bo‘yicha ishtirokchilarning takliflarini baholash natijalarini davlat xaridlarining elektron tizimida joylashtirishni ta’minlasin.

5. “O‘zarxiv” agentligida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish, xarid qilish hujjatlarini sifatli tayyorlash va ularni e’lon bilan joylashtirish uchun “O‘zarxiv” agentligi bosh buxgalteri F.Suyunov, bo‘lim boshlig‘i A.Turapov mas’ul etib belgilansin.

6. “O‘zarxiv” agentligining Xarid komissiyasi a’zolari tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 19-oktabrdagi 362-son buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Ushbu buyruq ijrosi nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Direktor



U. Yusupov

Toshkent shahri,  
2024-yil 20-may,  
47-son

“O‘zarxiv” agentligining  
2024-yil 22-maydagi  
47-son buyrug‘iga ilova

**“O‘zarxiv” agentligi huzurida faoliyat ko‘rsatuvchi  
XARID KOMISSIYASI TARKIBI**

1. **U.Yusupov** - “O‘zarxiv” agentligi direktori, *Xarid komissiyasi raisi*;
2. **Sh.Sadikov** - “O‘zarxiv” agentligi direktori o‘rinbosari;
3. **A.Aliyev** - “O‘zarxiv” agentligi direktorining matbuot kotibi;
4. **Sh.Yaminov** - Axborot xavfsizligi va raqamlashtirish bo‘yicha maslahatchi;
5. **F.Suyunov** - “O‘zarxiv” agentligi bosh buxgalteri, *Xarid komissiyasi kotibi*;
6. **L.Mirzayev** - “O‘zarxiv” agentligi bo‘lim boshlig‘i;
7. **A.Turapov** - “O‘zarxiv” agentligi bo‘lim boshlig‘i.

*Izoh: Xarid komissiyasi tarkibi a’zolari o‘zgargan taqdirda lavozim bo‘yicha o‘rniga tayinlangan shaxs a’zo hisoblanadi.*